# Muhammadsharif So’fizoda ijodiga bag'ishlangan konferensiya tashkil etildi

Muhammadsharif Egamberdi o’g’li So’fizoda o’zbek demokratik va ma’rifatparvarlik davri adabiyoti an’analarini davom ettirgan adiblar sirasiga kiradi. Uning, ayniqsa, "Dakanang", "Bedanang", "Ayting bu so’zimni", "O’pay", "G’ubor dardu olam" kabi hajviy va lirik g’azallari e’tiborga loyiq. U bilan o’zbek adabiyotida muhim o’rin tutgan ijodkor hisoblanadi.

O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folьklori instituti tomonidan shoir ijodigan bag’ishlangan “O’zbek mumtoz she’riyati an’analarining Muhammadsharif So’fizoda ijodida yangilanishi va uning milliy rivojlanish davridagi ahamiyati” mavzusida respublika ilmiy onlayn konferentsiya tashkil etildi. Unda Institut xodimlari, taniqli adabiyotshunos olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Konferentsiyada So’fizoda she’riyatida muallif biografiyasi va davr ijtimoiy voqeligining badiiy ifodasi, shoir g’azallari va mavzular ko’lami haqida ma’ruzalar tinglandi va shoir ijodining o’zbek adabiyotida o’rni alohida ekanligi ta’kidlandi.